

QURILISH KORXONALARIDA DAROMADLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING MUAMMOLARI

**U.A.Shirinov – SamISI dosent
B.K.Nasriddinov – SamISI magistr**

Annotasiya: Maqolada qurilish korxonalarida daromadlar auditini tashkil etish dastaklari, daromadlar auditini tashkil etish masalalari, daromadlar auditini o'tkazish ketma-ketliklari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: qurilish korxonalari, daromadlar auditi, audit ketma-ketligi, audit o'tkazish tartibi.

Аннотация: В статье рассмотрены рычаги организации проверок доходов на строительных предприятиях, вопросы организации проверок доходов, последовательность проведения проверок доходов.

Ключевые слова: строительные предприятия, аудит доходов, последовательность проверок, порядок проведения проверок.

Abstract: The article discusses the levers of organizing income audits at construction enterprises, issues of organizing income audits, and the sequence of income audits.

Key words: construction enterprises, income audit, sequence of inspections, procedure for conducting inspections.

Mamlakatni modernizasiya qilish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovasion jarayonlarini jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotni tubdan yaxshilash sharoitida qurilish tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotimizda kundan-kunga yangi-yangi yo'nalish va sohalar yaratilmoqda. Bu borada xususiy tashabbuslarni yanada kengaytirish, ularga yangi istiqbollarni ochish maqsadida endi "qo'l boshqaruvi" dan – aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o'tish vaqtি keldi" deb ta'kidlagani beziz emasdir. Keng ko'lami va samarali islohotlarimiz natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotimizga shu yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi¹. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekistonda 115,1 trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga oshgan (1-rasm).

2022 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotni iqtisodiy o'sish sur'ati 5,9 foizni tashkil etib, 2023 yilda 6,2 foiz, 2024 yilda 6,6 foiz o'sishga erishish rejalashtirilgan. YaIM hajmi qariyb 840 trln so'mga yetishi ko'zda tutilgan edi. Ma'lum qilinishicha, 2022 yilda asosiy tarmoqlar kesimida yalpi ichki mahsulot

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022 йил.

tarkibi quyidagicha shakllanadi: sanoat - 217,7 trln so'm, qishloq xo'jaligi - 207,6 trln so'm, **qurilish - 52,5 trln so'm**, xizmatlar sohasi - 300,3 trln so'm².



1-rasm. O'zbekistonda bajarilgan qurilish ishlari hajmi³.

Mamlakatimizda 2022 yilning yakuni bo'yicha asosiy tarmoqlarda kutilgan real o'sish miqdori: qurilish - 8,1 %, sanoat - 7 %, xizmatlar sohasi - 6,5 %, qishloq xo'jaligi - 3,1 % ko'zda tutilgan edi. Yuqorida statistik ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, qurilish industriyasini rivojlantirishda qurilish mashina-mexanizmlarni ish faoliyatiga ham alohida urg'u berib o'tsak maqsadga muvofiqdir. Har qanday rivojlangan davlatlarda bevosita qurilish tashkilotlari faoliyatini asosiy ko'rsatkichlarini qurilish mashina-mexanizmlar tomonidan bajarilgan ishlari hajmi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, respublikamizda, qurilish ishlarini bajarish hajmi yillar davomida keskin o'sib bormoqda (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, mamlakatimizda qurilish ishlarini bajarish ko'rsatkichi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan, 125,1 foizga keskin ravishda o'sgan bo'lib, bajarilgan qurilish ishlari hajmi bevosita eng katta ko'rsatkichi, ya'ni 246,9 foizi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi. Bundan ko'rilib turibdiki, mamlakatimizda oxirgi to'rt yil mobaynida qurilish ishlari keskin ravishda o'sganligi milliy iqtisodiyotimizda va aholi turmush darajasini yanada yaxshilanishidagi hamda qurilish industriyasini rivojlanishidagi o'rni alohida ahamiyat kasb etilgan. Qurilish tarmog'i iqtisodiyotning barcha sohalari moddiy-texnik bazasini yaratishda hamda aholining shinam uy, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi xizmatlari, shuningdek, madaniy xordiqqa bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi.

² <https://www.gazeta.uz/uz/2021/11/11/gdp-2022/>

³ <https://www.gazeta.uz> - «Газета.уз» интернет-нашри. © 2008-2023.

Daromadlar hisobi va auditib bo'yicha bir qancha olimlar va tadqiqotchilar izlanish olib borishgan, jumladan, K.B.Urazov, U.A.Shirinov, T.Yaxyoyev va boshqalar.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlarining bajarilish ko'rsatkichlari⁴ (mlrd.so'm)

Xududlar

2018

2019

2020

2021

2022

O'zbekiston Respublikasi

51129,3

71156,5

88130,3

107492,7

115 110,4

Qoraqalpog'iston Respublikasi

2182,7

3315,4

3992,5

4480,6

4 675,6

Andijon

2819,5

3539,1

4673,0

5657,8

6 025,3

Buxoro

⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/construction-2>

3581,2

4368,1

5659,8

7401,1

7 287,8

Jizzax

1564,3

2510,6

2715,0

3085,4

3 090,3

Qashqadaryo

3701,1

4365,3

4832,6

6336,6

6 782,3

Navoiy

2280,8

3464,0

3944,7

5155,5

5 526,2

Namangan

2257,6

3471,0

4678,2

5556,7

5 998,1

Samarqand

3299,0

4527,2

5755,3

7385,7

7 746,7

Surxondaryo

2879,7

3979,7

4774,7

5868,4

5 816,1

Sirdaryo

1001,1

1926,2

2407,6

2708,8

2 569,7

Toshkent

3006,7

5594,1

7102,6

9401,2

10 429,7

Farg'ona

2942,7

4162,8

5473,9

6993,7

7 395,6

Xorazm

1878,3

2496,8

2856,8

4228,5

4 220,5

Toshkent.sh

10870,7

16256,9

19215,4

26535,3

28 236,2

Qurilish ishlarini audit qilishda quyidagi xolatlarga jiddiy axamiyat berish lozim:

- ❖ qurilish ishlari smetalari to'g'ri qilibgani;
- ❖ qurilishga oid daromadlarni to'g'ri tan olinayotganligi;
- ❖ qurilish ishlarida ishlayotgan xodimlarga to'g'ri ish haqlari hisoblanayotganligi;
- ❖ qurilish inventarlarini to'g'ri hisobdan chiqarilayotgani;
- ❖ qurilishdagi mashina va uskunalarga to'g'ri eskirish hisoblayitganligi va boshqalar.

Qurilish tashkilotlarida daromadlar auditni ma'lum xususiyatlarga ega bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- ✓ Daromadlarni shakllanishi bir qancha ko'rsatkichlarga bog'liq;
- ✓ Daromadlar hisobot davridagi korxona faoliyatining yakuni hisoblanadi;
- ✓ Korxonaning foyda bilan ishlashi yoki hisobot davrini zarar bilan yakunlanishi moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlarga bevosita bog'liq bo'ladi;
- ✓ Daromadlar oldindan aniq bo'lмаган xavf-xatarlar, tasodifiy hodisalar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Qurilish tashkilotlarida daromadlar auditining maqsadi buxgalteriya hisobida va hisobotida korxona daromadlarini ishonchli aks etganligi,

daromadlarni qonuniy taqsimlanganligi va barcha hisob kitoblar O'zbekiston Respublikasi me'yoriy xujjalilariga, MHXS va BHMSga mosligini aniqlashdan iboratdir.

Qurilish tashkilotlarida daromadlar auditini tekshirish uchun ma'lumot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta'sis hujjatlari, ta'sischilar majlisi bayonnomalari, buyruqlar, farmoyishlar.

2. Dastlabki hujjatlar (kirim va chikim kassa orderlari, to'lov qaydnomalari, chiptalar, schetlar, to'lov topshiriqnomalari, ilova kilingan so'mdagi va valyutadagi schetlari bo'yicha bank ko'chirmalari, sotish, foyda va zararlar, soliqlar va yig'implarni to'lash uchun foydalanish schetlari bo'yicha hisob registrlari (qaydnomalar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar).

3. Bosh kitob, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, alohida soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar va boshqalar hisoblanadi.

4. 9000-«Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.

5. 9300 -" Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobi schyotlari " ma'lumotlari.

6. 9500 «Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» ma'lumotlari.

Xulosa qilib aytganda qurilish tashkilotlarida daromadlar hisobini to'g'ri tashkil etilishi korxona iqtisodiy faoliyatini yaxshilashiga sabab bo'ladi. Bu esa o'znavbatida daromadlar auditini ham to'g'ri o'tkazilishi ham axborot foydalanuvchilarni qaror qabul qilishiga sabab bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Уразов, К. Б., & Вахидов, С. В. (2019). Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Т.:«Фан ва технология», 540.
2. Muhibova, G. Ya, and O. U. Sharifxodjaeva. "Qurilish tashkilotlarida hisob muammolari." *Innovations in Technology and Science Education* 2.9 (2023): 1858-1865.
3. To'lqin, Y., Shahzoda, S., & Samandarjon, I. (2024). Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirishda xalqaro yondashuvlar. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 38(2), 60-63.
4. Ширинов, У. А., & Нарзуллаев, Н. А. (2022). Молиявий мажбуриятлар аудитини такомиллаштириш. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 810-813.
5. Ширинов, У. А., & Нарзуллаев, Н. А. (2022). Молиявий мажбуриятлар аудитини методологик асослари. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 814-817.

6. Ширинов, У. А. (2021). Improvement of methodology of auditoral assessment of segmentary accounting and reporting reality in committees providing communication services. *Экономика и социум*, (5-2), 642-647.